

VATANPARVARLIK E'TIQODI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK AHAMIYATI SIFATIDA

Boyto'r rayev Sirojidin Usmon o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute o'qituvchisi

Qo'ldoshev Og'abek Sherzod o'g'li

Qoshshoqov Umidbek Navro'zovich

Ermamatov Akbar Qo'ldosh o'g'li

DTPI Pedagogika fakulteti

Jismoniy madanyat ta'lif yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Vatan tuyg'usi" va "vatanparvarlik e'tiqodi" tushunchalari mazmuni va mohiyatining pedagogik-psixologik taxlili bayon etilganbo'lib, vatanparvarlik tuyg'usining milliy o'ziga xoslik asosiy tarkibiy qismlari yoritilgan. Vatan tuyg'usi va vatanparvarlik e'tiqodi shaxsning eng muhim ma'naviy boyligi bo'lib, uning rivojlanishi eng yuqori pog'onasini tavsiflashi ko'rsatib berilgan.

Vatanparvarlik tushunchasi asrlar davomida shakllangan chuqur nazariy an'anaga ega. Aflatunning so'zlariga ko'ra, vatan ota va onadan qimmatroqdir. Sharq mutafakkirlarining asarlarida vatanga muhabbat, eng oliv qadriyat sifatida qaraladi. O'tmishning ko'plab mutafakkirlari va ma'rifatparvarlari shaxsni shaxs sifatida shakllantirish jarayonida vatanparvarlikning rolini ochib berib, ularning ko'p qirrali shakllantiruvchi ta'siriga ishora qildilar. Ular vatanparvarlik nafaqat tarbiyaning muhim vazifasi, balki kuchli ta'lif berish vositasi ekanligiga ishonishdi. Qudratli imperiya barpo etgan Zahiriddin Muhammad Bobur ham Vatan firoqida hayotdan ko'z yumib ketdi. Shu sababli vatan tuyg'usi hamma insonlarda bo'lsa ham, lekin bu tuyg'u o'zbeklarda juda mustaxkam, barqaror, xatto milliy fazilat, qadriyat darajasiga ko'tarilganini ochiq aytish mubolag'a bo'lmasa kerak. Vatan tuyg'usi bo'lgan kishidagina vatanparvarlik jo'shuradi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek: "Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. Ya'ni, inson o'zligini anglagan, nasl-nasabini bilgani sari yuragida vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqurbo'lsa, tug'ilib o'sgan Vatanga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi". "Haqiqiy vatanparvarlik, - deb ku'rsatishgan edi amerikalik etnopsixologlar B.Ganniy va V.Jeromlar - faqat xalki va Vatanining jahon miqyosida tutgan mavkeidan faxrlanish bilangina namoyon bu'lmaydi. Millat hayotida shunday davrlar va holatlar ham bu'ladi, bunda haqiqiy vatanparvarlik tuygusi uyalish va orlanish bilan tu'lib toshishi mumkin. Darxaqiqat, millatning o'qimishli vakillari, ziyoli va olimlar, yozuvchilar millat hayotiga, milliy jarayonga teran ob'ektiv ku'z bilan qarab, millat hayotidagi ayrim kamchilik va

nuqsonlarni ru'y-rost ayta olishgan, tanqid qilishgan. Taniqli u'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniy "Guliston yoki axlok" kitobida bunday yozadi: "... Bizlar na uchun harakat qilmaymiz, qimirlamaymiz? Boshqa millatlarning o'gillari, qizlari kecha demay, kunduz demay, yoz demay, qish demay ilm yu'lida jonlarini fido qilib, qovushib, yugurishib, ko'zlarimizni qamashtirib turgan bir zamonda, bizlar hamon uyqudan, jaholatdan boshimizni ku'tarmaymiz, ibrat olmaymiz" ... Muqaddas Vatan uchun jonini fido etishga tayyor turish kishining yuksak axlokiyligidan dalolatdir. Vatanparvarlik qadimiylar tuygularidan hisoblanadi. Vatan inson uchun shu qadar aziz va muqaddaski, eng og'ir jinoyat qilganlarga jazo sifatida Vatandan badarga qilish hukm qilinadi.

Millatning ilgor vakillari doimo milliy tuygularni o'zlarida mujassamlashtirgan va uni targ'ibotchisi bo'lib kelganlar. Vatanga mehr, sadoqat iymonlilikning belgisi sifatida qaralgan. Muhammad payg'ambarning hadisi muboraklarida aytgan,

«Vatanni sevmoq iymondandir», degan tabarruk fikrlarida ham xuddi shu ma'no yotadi. Buyuk mutafakkir Abdurauf Fitrat ham Vatan qiblagohdir, sajdagohdir, degan teran fikrlarni aytgan edi. O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Elim deb, yurtim deb kuyib, yonib yashamoq kerak, bizdan ozod va obod Vatan qolsin", degan teran fikrlarida xalqimiz e'tiqodiga chuqr singib ketgan vatanparvarlik e'tiqodi va qadriyatlari o'z ifodasini topgan. So'nggi yillarda ushbu sohada nafaqat vatanparvarlik, balki ijtimoiy, balki ma'naviy, axloqiy, madaniy, tarixiy va boshqa tarkibiy qismlarni birlashtiruvchi muhim qadriyat sifatida qarash keng tarqalgan. Vatanparvarlik haqidagi barcha fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkin: vatanparvarlik jamiyat va davlat hayotining barcha sohalariga xos bo'lgan eng muhim, boqiy qadriyatlardan biri, shaxsning eng muhim ma'naviy boyligi bo'lib, uning rivojlanishi eng yuqori pog'onasini tavsiflaydi va o'zini Vatan manfaati yolda faol harakat etishida namoyon bo'ladi. Yuqoridagi ta'rif vatanparvarlik tushunchasining mazmunini aniqlashtirishga imkon beradi. Bunga quyidagilar kiradi: inson tug'ilib o'sgan joylarga mehr-muhabbat hissi; o'z xalqining tiliga hurmat; vatan manfaatlarini himoya qilish; Vatan oldidagi burchini anglash, uning sha'ni va qadr-qimmatini, erkinligi va mustaqilligini himoya qilish (Vatanni himoya qilish); fuqarolik hissi va vatanga sadoqat namoyon bo'lishi; o'z mamlakatining ijtimoiy va

madaniy yutuqlari bilan faxrlanish; o'z Vatani, davlat ramzları, o'z xalqi uchun g'ururlanish; Vatanning tarixiy o'tmishiga, xalqiga, urf-odatlari va an'analariga hurmat bilan munosabatda bo'lish; vatan va uning xalqi taqdiri, ularning kelajagi uchun javobgarlik, o'zishiga, Vatanning qudrati va farovonligini oshirishga bag'ishlanish istagida ifodaetilgan; gumanizm, rahm-shafqat, umuminsoniy qadriyatlar. Vatanparvarlik ta'limi ta'lim tashkilotlarining tarbiyaviy ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Vatanparvarlik tuyg'usi axloqiy tuyg'ular

guruhiiga tegishli. Axloqiy tuyg'ular insonning boshqa odamlarga, vataniga, oilasiga, o'ziga munosabatini namoyon etadi.

Hissiyot bizning tuyg'ularimizning o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Hissiyot hodisalarga jarayonlarga yo'naltirilgan doimiy motivatsion ahamiyatga ega va faoliyatning umumiy yo'nalishi uchun mas'uldir. K.K.Platonovning ta'kidlashicha, hissiyotlarning psixologik tuzilishi emotsiya va tushunchalarni o'z ichiga oladi. Odamda Vatanga muhabbat hissi paydo bo'lishi uchun unga Vatan tushunchasi yaqin bo'lishi kerak. Tushunchalar tyg'ularning kontseptual komponenti tarkibidagi hissiyotlarni o'zgartiradi, ularning tarkibi, munosabatlarda, xulq-atvorda namoyon bo'ladi. Tuyg'ular tarkibidavatanparvarlik axloqiy tuyg'ularning eng asosiysi xisoblanib, unda uchta tarkibiy qismni ajratish mumkin. Kognitiv tarkibiy qism - Vatan, uning xalqi, madaniyati, fuqarolik burchi, vatanning ahamiyati, uning fuqarolari, inson haqidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Emotsional tarkibiy qism insonning Vatanga, uning madaniyati, tili, tabiat, tarixiga bo'lgan muhabbatini aks ettiradigan kechinmalar to'plaminidan iborat.

Xulq-atvor komponenti inson faoliyati, ularning xulq-atvorga ta'sir etuvchi motivlarxarakteri, xatti-harakatlardagi ushbu holalarning namoyon bo'lishini anglatadi.

Ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida tuyg'u insonning faoliyati, manfaati, maqsadi, ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Inson o'zi yashab turgan Vatan manfaatlarini, ehtiyojlarini o'zining ongli faoliyati davomida anglab boradi. Ushbu faoliyat davomida uning manfaatlari yo'lida kyunadi, achinadi, g'am chekadi, xursand bo'ladi, faxrlanadi va hokazo. Tuyg'u – bu inson faoliyati uchun ahamiyatli bo'lgan hodisalarni aks ettirish orqali uning manfaatlari, ehtiyojlari va maqsadlariga xizmat qiladigan ongning bo'linmas atributidir. Bu esa xar bir insonga, jamiyatga tegishli hodisadir. Shuning uchun Vatan tuyg'usi insonlar faoliyati bilan bog'liqholda o'z zaminiga binoan muhabbat tuyg'usidir. Vatanga e'tiqod – bu uning manfaatlari, ehtyojlari yo'lida timmay mehnat qilishdir. E'tiqod – umidli bo'lish, ishonish, maqsad sari bilimlar, g'oyaviy qarashlar tizimiga asoslanib borishdemakdir. Shaxsda vatan tuyg'usi va vatanparvarlik e'tiqodi ma'lum bir xulq-atvorlarga, ya'ni shu xulq-atvorni sababi bo'lgan motivlarga undaydi. Vatanni sevish,

vatanparvarlik e'tiqodi ma'lum bir millatga tegishli bo'lgan shaxslarni vatan manfaatlari va maqsadlari yo'lida, o'z ehtiyojlarini hisobga olgan holda ma'lum bir xatti-xarakatlarini amalga oshirishga undaydi. Bunday xatti-xarakat milliy birlikda ko'zga tashlanadi.

Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik e'tiqodi hamma xalqlarda mavjud. Barcha xalqlar o'z tarixiy taraqqiyoti davomida vatanparvarlik e'tiqodining ajoyib namunalarini ko'rsatganlar. O'z vatanini boshqalar tomonidan istilo qilinishiga qadr-qimmati, obro'-

e'tibori, manfaatalari kamsitilishiga beparvo bo'lib turadigan inson jahonda yo'q, desak ham bo'ladi. Vatan tushunchasini muayyan aniq xudud bilan bog'lab tushunishga o'rganib qolgan o'zbeklarda vatanparvarlik tushunchasi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'zbeklarni qo'ni-qo'shnichilik, maxalla-ko'ychilik, qarindoshurug'chilik rishtalari nihoyatda maxkamdir. Ularni uzoq yurtlarga ketishi u yoqda tursin, bir maxalladan ikkinchi maxallaga ko'chirish ham katta muammo xisoblanadi. O'zbek tabiatdan millatchi emas. Lekin u qaerda bo'lmasin, o'zini tushunadigan millatdoshlari ichida yashashni istaydi. Agar biror joydan uy-joy sotib olishni istasa ham, birinchi navbatda qo'ni-qo'shnilarini ichida o'zbeklar bor yoki yo'qligini surishtiradi.

Vatan tuyg'usi avloddan-avlodga vatanparvarlik qadriyatları orqali o'tadi. Vatan tuyg'usi, bu boradagi insoniy fazilatlar esa ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi, boyib, rivojlanib, avloddan-avlodga o'tadi. Shu sababli ham kishilarni vatanparvarlik ruhida voyaga yetkazish masalasi barcha davrlarda ham katta ahamiyat kasb etgan. Vatanparvarlik ham ma'naviyat, ham ichki ruhiy quvvatdir. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan keyin yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta e'tibor berilayotganining sababi ham shundadir.

Vatanparvarlik tuyg'usi deb atalsa ham unda chuqur aqliy, odob, iymon, e'tiqod mujassamlashadi. Bu e'tiqod esa halollik, poklik, sadoqat, fidoyilik, mehr-muruvatlilik, mehnatsevarlik, millatparvarlik, insonparvarlik, ijodiy tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, oilaparvarlik,adolatparvarlik singari fazilatlar yotadi.

Yaratilgan vatanparvarlik tuyg'usi milliy o'ziga xoslikning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Bu o'z ona Vataniga, uning tarixi, madaniyati, urf-odatlari va kundalik hayotiga muhabbat, g'urur va sadoqat tuyg'usida, uni himoya qilishning axloqiy burchini anglashda, shuningdek, boshqa jamoalarning qadr-qimmatini anglashda, bir-biri bilan qarama-qarshilik qilmasdan ularning shaxsini va yashash huquqini tan olishda ifodalanadi. Albatta, vatanparvarlik hissi haqida uni shakllantirish omilisiz gaplashish mumkin emas, bu tarbiyadir. Ta'limning psixologik tomoni va milliy madaniyatning o'rnnini psixolog olim I.A.Ilyin bolada vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishda, shaxsini shakllantirishda, bolalar tarbiyasidamilliy- ma'naviy xususiyatlarni uyg'otish sifatida belgilaydi. Bolada hayratlanish, axloqiy va estetik tuyg'ular, qiziquvchanlik, yutuqqa chanqoqlik, milliy bo'lishga intilish juda muhimdir. Vatanparvarlik xalqning teran tarixiy ildizlarini, milliy meros va qadriyatlarini anglash bilan ham bog'liq bo'lishi darkor. O'z tarixini bilmagan, tarixiy xotiraga ega bo'limgan xalq ertangi kunini ham to'g'ri tasavvur qilish imkoniga ega bo'lmaydi. Vatanparvarlik o'z vatanining tarixini, milliy meros va qadriyatlarini bilish bilangina cheklanmaydi. Bu o'rinda jahon sivilizatsiyasining ilg'or yutuqlarini bilish, ulardan oqilona foydalana olish ham zarurdir. Shu ma'noda milliy vatanparvarlik umuminsoniy meros va qadriyatlarga tayanadi. Shu ma'noda o'z izzati va qadrini

bilgan xalq millat ajratmaydi, uning bag'ri keng bo'ladi. E'tiqodiy bag'rikenglik ham vatanparvarlik va millatparvarlikning asosiy belgilaridandir. Xulosa qilish mumkinki:

1) Insonlar urug', qabila, elat, millat kabi ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy birliklarni boshidan kechirgan. Xar bir davrda ham inson o'zini qaysidir guruxga mansub ekanligini anglab turgan. Birgalikda qilgan mehnatlari ularning ishlarini baroridan keltirgan. Hamkorlikda mehnat esa ularda urug'ga, qabilaga, elatga, millatga tegishli ijtimoiy-psixologik xolatlarning vujudga kelishiga, rivojlanishiga, mustaxkamlanishiga olib kelgan. Shu tarzda insonlarda birdamlik, birlik xissi paydo bo'lgan va shakllangan.

2) Millatga tegishli bo'lган urf-odatlar, an'analar, madaniyat, til, san'at aynan shu millatga tegishli bo'lган ijtimoiy-psixologik xarakterni paydo bo'lishiga olib kelgan. Milliy manfaatlarni, milliy o'zini-o'zi anglagan millatdagina milliy birdamlik va birlik mavjud bo'ladi.

3) Milliy birlik tuyg'usi millat tarixi, vatanparvarlik tuyg'usi, milliy o'zini-o'zi anglash, shaxsning psixologik kechinmalari, shaxsning bilim darajasi, dunyoqarashi kabi tomonlar bilan chambarchas bog'liqdir.

4) Vatanparvarlik tuyg'usi bu yoshlikdan inson xayoti faoliyati davomida shakllanadi. Insonning o'z Vatanini sevishi avvalo o'z oilasidan, yaqinlaridan boshlanadi.

5) Vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishida insonlarning ijtimoiy-psixologik munosabatlari ham muximidir. Ioda, tafakkur, xotira, milliy xarakter kategoriyalari ham vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishida asosiy omillar vazifasini bajaradi, xatto psixologik mexanizm rolini bajarishi mumkin.

6) Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik e'tiqodi va milliy birlik bu bir-biri bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, unda inson, jamiyat, muloqoti asosida shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Т. , Ўзбекистон, 2000.
- Каримов И. А. Юксак маънавият енгилмас куч . Т. : Маънавият, 2009.
- Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. Т. , Ўзбекистон, 2009.
- Иброҳимов А. , Султонов Х. , Жўраев Н. Ватан туйғуси. Т. , Ўзбекистон, 1996 й.
- Сайдуллаев Д. Иймондан айрилган бахтли бўлмас. Мулоқот, №2